

MUQADDAS RIM IMPERIYASI VA UNING SIYOSIY TARIXIDAN LAVHALAR

Faniya Avzalovna Axmedshina

Jizzax davlat pedagogika universiteti
professori, tarix fanlari doktori.,

Abulqosimova Ruxshona Jamshid qizi

Jizzax davlat pedagogika
universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotasiya. Ushbu maqolada Rim imperiyasi tashkil topishi, Generix I ning islohotlari, Saksoniyaliklar sulolasi hokimiyati, ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish, tashqi va ichki siyosati, oʻrta asrlarda hududla uchun kurashi, Otton I va uning hokimiyati haqida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Sharqiy va Gʻarbiy Rim imperiyasi, german qabilalari, kuchli qirollik, Rimning davomchisi, Dunyo moʻjizasi, 843- yil, Verden shartnomasi, Genrix I, Saksoniyaliklar sulolasi, Ioann XII, toj kiyish marosimi.

Oʻrta asrlardagi yirik imperiya sifatida tarixda qolgan Muqaddas Rim imperiyasi Otton I tomonidan Shimoliy va Oʻrta Italiyani Rim shahri bilan birga boʻysundirilgach, tashkil topgan davlat hisoblanadi. Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga: Chexiya, Burgundiya, Niderlandiya, Shveysariya yerlari ham kirgan. Bu imperiya german zodagonlarining manfaatini himoya qilgan va bosqinchilik siyosati olib borgan.

Muqaddas Rim imperiyasi 962-yilda Otton I taxtga oʻtirganidan to XII asrgacha Yevropadagi eng kuchli monarxiya edi. Tarixchi Endryu Xolt uni “ehtimol, Oʻrta asrdagi eng qudratli Yevropa davlati” deb, taʼriflaydi[1]. Markazlashtirilgan boshqaruv 1250-yillarga kelib susuya boshladi. Oʻzining eng gullab-yashnagan davrida imperiya tarkibiga: Germaniya, shimoliy va markaziy Italiya, Chexiya, shuningdek, Fransiyaning ayrim hududlari kirgan. 1034-yilgacha Muqaddas Rim

imperiya rasmiy ravishda uchta qirollikdan: Germaniya, Italiya va Burgundiya iborat edi.

1041-yilda Bogemiya Knyazligi imperiya tarkibiga kirdi, u 1198-yilda Bogemiya qirolligiga aylandi. Rasmiy ravishda imperiya ichidagi bu maqom unga 1212-yilda “Sitsiliya oltin buqasi” bilan berilgan edi. Sitsiliya qirolligi ham 1197-yildan boshlab, imperiya tarkibiga qo‘shildi[5].

Imperiya 962-yilda Germaniya qiroli Otton I tomonidan tashkil etilgan va qadimgi Rim imperiyasi va Buyuk Karl Frank imperiyasining bevosita davomi sifatida ko‘rilgan. Imperiya mavjudligining butun tarixi davomida markaziy hokimiyat va imperiya tarkibiga kirgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish jarayonlari uzluksiz davom etdi. Imperiya o‘zining butun tarixi davomida bir necha yuzlab hududiy-davlat tuzilmalarini birlashtirgan murakkab feodal iyerarxik tuzilishga ega markazlashmagan davlat birlashmasi bo‘lib qoldi. Imperiyaning boshida Imperator turar edi. Imperator unvonini merosiy emas edi, imperator saylovchilar kollegiyasi tomonidan saylov natijalariga ko‘ra tayinlangan.

Imperatorning hokimiyati hech qachon mutlaq bo‘lmagan, uning vakolatlari Germaniyaning yuqori tabaqa zodagonlari va XV asrning oxiridan boshlab imperiyaning asosiy davlatlari manfaatlarini ifodalovchi Reyxstag bilan chegaralangan edi.

Imperiya o‘zining dastlabki davrida feodal- teokratik davlat xarakteriga ega bo‘lib, imperatorlar xristian olamida eng yuqori hokimiyatga da’vogar edilar. Papa taxtining mustahkamlanishi va Italiyaga egalik qilish uchun ko‘p asrlik kurash Germaniyada hududiy knyazlar kuchining bir vaqtning o‘zida o‘sishi imperiyadagi markaziy hokimiyatni sezilarli darajada zaiflashtirdi. O‘rta asrlarning oxirlarida imperiya tarkibiga kirgan davlatlar yarim mustaqil yarim mustaqil edilar. Biroq, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida amalga oshirilgan “imperator islohoti” markaziy hukumatning ta’sirini kuchaytirishga va imperator va imperiya tarkibidagi davlatlar o‘rtasida kuchlar muvozanatini shakllantirishga imkon berdi. Ammo Reformatsiya

Yevropadagi 30 yillik urushdan so'ng inqirozga uchradi va Reyxstag imperiyaning asosiy kuchiga aylantirildi[2].

Imperiya Yangi davrda o'z fuqarolarining mustaqilligini, shuningdek, mulklarning an'anaviy huquq va imtiyozlarini himoya qilishni ta'minladi. Vestfaliya tinchlik shartnomasidan so'ng imperiyada bir nechta diniy mazhablar shakllandi, Imperiya katoliklar va protestantlar o'rtasida diniy urushlar kelib chiqarmaslikka harakat qildi. O'ttiz yillik urush tugaganidan keyin imperiyada hokimiyatni markazlashtirishga urinishlar kuzatilmadi.

O'rta asr Rim imperiyasi bilan bog'liq bo'lgan sakrum („muqaddas“ degan ma'noni anglatadi) atamasi 1157-yildan boshlab Fridrix I tomonidan ishlatila boshlangan. Ungacha bu davlat Rim imperiyasi hududi deb atalgan. 1512-yilda Kyoln imperatorlik qonun chiqaruvchi organining farmoni bilan imperiya nomi rasman Germaniya xalqlarining muqaddas imperiyasideb o'zgartirildi. Muqaddas Rim imperiyasi o'z nomini Rim imperiyasidan olgan va uning vorisi hisoblangan.

Fransuz ma'rifatparvar adibi Volter ushbu imperiya haqida kinoya bilan shunday yozadi: „O'zini Muqaddas Rim imperiyasi deb ataydigan va o'zini muqaddas Rim imperiyasi deb atashda davom etayotgan bu davlat na muqaddas, na Rim imperiyasi, na imperiya edi“[1].

Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi tarixiga to'xtalsak, bu hududda dastlab, German qirolligi nomi bilan tarixda faoliyat ko'rsatgan. Taxminan 900-yilda Sharqiy Frank qirolligining gersogliklari jumladan, Frankoniya, Bavariy, Shvabiya, Saksoniya va Lotaringiya qayta birlashdi. 911-yilda Karolinglar qiroli Lyudovik II vafot etganidan so'ng, Sharqiy Frank tojini kiyish uchun G'arbiy Frank qiroliga murojaat qilinmadi, balki uning o'rniga Frankoniya gersogi Konradni Rex Frankorum Orientalium qilib sayladi. 919-yilda o'limi oldidan Konrad tojni Saksoniyalik Genrix Faulerga (919-936-yillar) topshirdi[6].

Genrix 936-yilda vafot etdi, lekin uning avlodlari, Ottoniylar yoki Yudolfing sulolasi Sharqiy Frank qirolligini ya'ni Germaniya qirolligi taxminan bir asr davomida boshqarishdi. Genrix Faulerning o'limidan so'ng, uning o'g'li Otton I 936-yilda

Axenda qirol etib saylandi. U kichik grafliklar va bir necha gersoglarning bir qator qo'zg'olonlarini bostirdi. Shundan so'ng, qirol gersoglarning tayinlanishini nazorat qilishga muvaffaq bo'ldi. U Sharqiy Frank gersogliklarining aksariyat rahbarlarini o'z qarindoshlari bilan almashtirdi. Shu bilan birga, u o'z oila a'zolarining qirollik huquqlarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun e'tiborli bo'ldi.

Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi 951-yilda Otton I Italiyaning beva qirolchasi Adelaydaga yordamga bordi, dushmanlarini mag'lub etdi, unga uylandi va Italiya ustidan nazoratni o'z qo'lga oldi. 955-yilda Otton I Lechfeld jangida vengerlar ustidan g'alaba qozondi. 962-yilda Otton I ga Rim papasi Ioann XII imperatorlik tojini kiydirdi. Otton I ning imperator sifatida toj kiyishi nemis qirollarini Translatio imperii an'anasi orqali Buyuk Karl imperiyasining vorisi sifatida belgilandi[1]. Buyuk Otton I hukmronligi davridan boshlangan san'atning gullab-yashnashi Otton Uyg'onish davri sifatida atalib, uning markazi Germaniya edi, qolaversa, Shimoliy Italiya va Fransiyada ham ushbu jarayon yuzaga keldi.

963-yilda Otton I hozirgi Ioann XII ni taxtdan ag'dardi va yangi Rim papasi sifatida Lev VIII ni papalikka ko'tardi. Ushbu voqea Sharqiy Rim imperiyasi bilan ziddiyatlarni yuzaga keltirdi, ayniqsa Otton I ning o'g'li Otton II imperator Romanorum unvonini qabul qilganidan keyin bu ziddiyat kuchaydi. Shunga qaramay, Otton II Vizantiya malikasi Teofanuga uylanib sharq bilan nikoh aloqalari orqali yangi munosabatlarni o'rnatdi.

996-yilda Otton III o'zining amakivachchasi Grigoriy V ni birinchi nemislardan bo'lgan Rim papasi etib tayinladi. Otton III 1002-yilda yosh vafot etdi va uning o'rnini amakivachchasi Genrix II egalladi. Genrix II 1024-yilda vafot etdi va Saliyan sulolasidan bo'lgan Konrad II gersoglar va zodagonlar o'rtasidagi bahs-munozaralardan keyingina qirol etib saylandi[3].

Siyosiy tizimdagi o'zgarishlarga to'xtaladigan bo'lsak, XIII asrda yer boshqaruvidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlar siyosiy hokimiyatning aristokratik feodalizm hisobiga o'sib borayotgan burjuaziya tomon siljishiga olib keldi. Shaharlarning yuksalishi va yangi shaharliklar tabaqasining vujudga kelishi

feodalizmning ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy tartibini tugatdi. Shaxsiy majburiyatlar o'rniga pul qishloq xo'jaligida iqtisodiy qiymatni ifodalovchi umumiy vositaga aylandi. Dehqonlardan borgan sari o'z egalariga soliq to'lash talab qilina boshlandi.

XII asrda Ganza ittifoqi o'zini imperiyaning hamda butun shimoliy va markaziy Yevropadagi shahar va shaharlar savdogarlarining tijorat va mudofaa ittifoqi sifatida tashkil topdi. U Boltiq dengizi, Shimoliy dengizda dengiz savdosida ustunlik qildi. Ittifoqdagi shaharlarning har biri o'z suverenitetining huquqiy tizimini saqlab qoldi, Ittifoq tarkibidagi Imperiya erkin shaharlari faqat cheklangan darajadagi siyosiy avtonomiyaga ega edi. XIV asrning oxiriga kelib, ittifoq agar kerak bo'lsa, o'z manfaatlarini harbiy vositalar bilan ta'minladi. Xususan, 1361-yildan 1370-yilgacha Daniya Qirolligi bilan urush olib borildi. Ittifoq 1450-yildan keyin o'z mavqeyini yo'qotdi[4].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Muqaddas Rim imperiyasi 962-yilda Otton I taxtga o'tirganidan to XII asrgacha Yevropadagi eng kuchli monarxiya edi. Imperiya 962-yilda Germaniya qiroli Otton I tomonidan tashkil etilgan va qadimgi Rim imperiyasi va Buyuk Karl Frank imperiyasining bevosita davomi sifatida ko'rilgan. Imperiya mavjudligining butun tarixi davomida markaziy hokimiyat va imperiya tarkibiga kirgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish jarayonlari uzluksiz davom etdi. Imperiya o'zining butun tarixi davomida bir necha yuzlab hududiy-davlat tuzilmalarini birlashtirgan murakkab feodal iyerarxik tuzilishga ega markazlashmagan davlat birlashmasi bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ergashov.Sh. Jahon tarixi. Toshkent. 2014. 62-67-b.
- 2.Rajabov R. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2016. 205-b.
- 3.Salimov T. Jahon tarixi. (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda). Toshkent. 2014. 97-98-b.
- 4.Salimov T., Sultonov F. Jahon tarixi. Toshkent. 2017. 92-b.
- 5.Semenov V. F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent. 1974. 82-85-b.
6. www.wikipedia.org. internet sayti